O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2023 - yil 28 - aprel 125-7-0-Q/23 Samarqand viloyat hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining ijobiy tajribasini e’tiborga olgan holda uning faoliyati samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari, shuningdek, harbiy pensionerlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini kuchaytirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining viloyat hududiy bo‘linmasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar Jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo‘linmasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

mudofaa va harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarga oid jamoatchilik hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilgan takliflarni, fikr-mulohazalarni har tomonlama tahlil qilib borish, ijtimoiy so‘rovnomalarni, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun Mudofaa bo‘limlarini fuqarolar bilan bog‘lab turuvchi “ko‘prik” vazifasini bajarish;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish, uy-joy, tibbiy hamda boshqa ta’minot turlari bilan ta’minlash, xizmat o‘tash shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tegishli dasturlarning bajarilishini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

harbiy xizmatdan rezerv (zaxira)ga bo‘shatilgan fuqarolarning ijtimoiy va professional moslashuvi hamda bandligi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etish;

mudofaa va harbiy qurilish, shu jumladan, Mudofaa vazirligi faoliyatiga oid normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini (davlat sirlariga oid, foydalanish doirasi cheklangan hujjatlar va ma’lumotlar bundan mustasno) ishlab chiqish, ularning jamoatchilik va ekspert-mutaxassislar muhokamasidan o‘tkazilishini tashkil etishda Mudofaa bo‘limlariga yaqindan yordam ko‘rsatish;

fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, harbiy qism (muassasa)larda sog‘lom ma’naviy-ruhiy hamda yuksak axloqiy va madaniy muhit, qonuniylik, huquq-targ‘ibot, yuksak axloq va madaniyat saqlanishini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar tayyorlash va Mudofaa bo‘limlariga kiritish;

yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasi, Ona Vatanga sadoqat, uning taqdiri va ravnaqi uchun daxldorlik hissini kuchaytirish, ommaviy madaniyat, axborot-psixologik xurujlarga qarshi milliy mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda davlat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla institutlari, ta’lim tashkilotlarining yoshlarni vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘z fuqarolik burchi va majburiyatlarini vijdonan bajaradigan O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga qodir barkamol shaxs etib tarbiyalash borasidagi aniq maqsadli ishlarni muvofiqlashtirib borishda ishtirok etish;

Mudofaa boshqarmasi (harbiy okrug, harbiy qism (muassasa)lar qo‘mondonliklari), jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birgalikda chaqiruvga qadar yoshlar va harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligini tashkil etish;

yoshlarda va harbiy xizmatchilarning milliy g‘ururni mustahkamlash, ularda faol hayotiy pozitsiyani, Vatan mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyat hissini mustahkamlash;

hududiy bo‘linmalarning faoliyatini tahlil qilgan holda har bir a’zoning ish samaradorligini baholab, kelgusida ularni faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

hududiy bo‘linmalar faoliyatini harbiy qismlarning (muassasalarning) joylardagi davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ta’lim tashkilotlari, jumladan, “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari, “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati bilan uzviy hamkorligini ta’minlashga yo‘naltirish;

fan, madaniyat va san’at namoyandalari hamda Mudofaa boshqarmasi faxriylari ishlari

bo‘yicha kengashlarni jalb etgan holda o‘quv-tarbiyaviy, targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-amaliy tadbirlarni o‘tkazishda harbiy qism (muassasa)larga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralar daxlsizligini ta’minlash masalalariga doir materiallarni e’lon qilish orqali samarali tushuntirish va targ‘ibot ishlarini tizimli asosda amalga oshirish.

4. Belgilab qo‘yilsinki;

hududiy bo‘linmaning tashkiliy-texnik ta’minoti viloyat hokimligi tomonidan amalga oshiriladi;

Jamoatchilik kengashi o‘z hududiy bo‘linmasiga yuklangan vazifa va majburiyatlarning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi hamda ularning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, shuningdek, Samarqand viloyati Mudofaa boshqarmasining fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin va samarali hamkorlik qilishiga ko‘maklashadi;

Jamoatchilik kengashining viloyat hududiy bo‘linmasi viloyat hokimi oldida hisobdor bo‘ladi.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar boshqarmasi (Z.Raxmanova) Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linmasining qolgan a’zolari bilan hamkorlikda bir oy muddatda va keyinchalik har yili 15-yanvarga qadar amalga oshiriladigan tadbirlarning yillik dasturini tasdiqlasin.

6. Viloyat hokimining o‘rinbosari (X.Ochilov), viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (B.Quvvatov) tuman va shahar hokimliklari:

Jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo‘linmasiga samarali faoliyat yuritishlari uchun hamda ularning zimmasiga yuklangan vazifalarni hal etishda har tomonlama ko‘maklashsin;

belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda Jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo‘linmasini tegishli boshqarma va tashkilotlar, harbiy okrug va harbiy qism (muassasa)lar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar boshqarmasi (Z.Raxmanova) bir oy muddatda Jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo‘linmasining har bir a’zosi tomonidan bajariladigan aniq vazifalarni belgilasin.

8. Viloyat hokimining ayrim qarorlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Z.Raxmanova zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **E.Turdimov**

Samarqand viloyat hokimining
2023 yil 28 apreldagi
125-7-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining viloyat hududiy bo‘linmasi

TARKIBI

1.	Raxmanova Zebiniso Pulatovna	-	Viloyat hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i, *hududiy bo‘linma raisi*
2.	Tugalov Toshpo‘lat	-	Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi raisi, *hududiy bo‘linma raisi o‘rinbosari*
3.	Ro‘ziyev Shuxrat Ashurovich	-	Viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig‘i, *hududiy bo‘linma raisi o‘rinbosari.*
4.	Sultonov Shokir Quvonovovich	-	Viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i. v.v.b
5.	Jabborov Isroil Ismoilovich	-	Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i
6.	Nuriyev Salohiddin Samadovich	-	Viloyat Adliya boshqarmasi boshlig‘i
7.	Eshonqulov Shaxzod Eshquvatovich	-	Viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
8.	Jumaniyazov Davronbek Xusainbayevich	-	Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
9.	Djurakulov Shoxrux Davronovich	-	Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati
10	Raximov Bekzod Mirsaidovich	-	“Vatanparvar” tashkiloti viloyat Kengashi raisi
11.	Rafikov Suxrob Abdugaffarovich		Kasaba uyushmasi viloyat kengashi raisi
12.	*Lavozimga* ko‘ra	-	Viloyatdagi Oliy o‘quv yurtlari rektorlari va direktorlari
13.	Nazarov Farxod Sharipovich	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari
14.	Xaydarov Akram	-	Viloyat jurnalistlar uyushmasi rahbari
15.	Axtamov Akbar Axtamovich	-	“Mahalla” xayriya jamoat fondi viloyat bo‘limi raisi
16.	Raxmonova Raxima Rashidovna	-	“Sog‘lom avlod uchun” fondining viloyatdagi filial direktori
17.	Negmatov Shuxrat Xudoyberdiyevich	-	“Nuroniy” jamg‘armasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
18.	Sultonov Iskandar Almasovich	-	Samarqand viloyati musiqali drama teatri direktori
19.	Rustamov Odil	-	“O‘zbekkonsert” davlat muassasasining viloyat bo‘limi direktori
20.	Sherov Rashid Pardayevich	-	Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo‘yicha viloyat kegashi raisi

Izoh: *Viloyat Mudofaa boshqarmasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining viloyat hududiy bo‘linmasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda ularning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Samarqand viloyat hokimining
2023 yil 28 apreldagi
125-7-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyati hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Viloyat hokimining 2018-yil 27-maydagi “О Указе Президента Республики Узбекистон от 24 мая 2018 года № УП-5447 “О внесении изменений и дополнений, а также признании утратившиму силу некоторых решений Президента Республики Узбекистан и Провительство Республики Узбекистан” 352-P-sonli qarorining 1-ilovasi 42-bandi. *

2. Viloyat hokimining 2017-yil 26-avgustdagi “О Постанавлении Президента Республики Узбекистан от 23 августа 2017 года № ПП-3234 "О Дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Общественного совета при Минстерстве обороны Республики Узбекистан”496-P-sonli qarori.*

Izoh: * ushbu qarorlar rus tilida qabul qilingan.